

PRAGMALINGVISTIK VA MADANIY INTERFERENSIYA (MASALAN: MUROJAAT SHAKLLARI, XUSHMUOMALALIK FORMASI)**Mohinur Ernazarova****Kokand University****Jahon tillari kafedrası o'qituvchisi****E-mail: ernazamohinur@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17174006>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan madaniy interferensiya muammolari yoritiladi. O'zbek va rus tillaridagi murojaat shakllari, xushmuomalalik formulalari hamda turmush odatlaridagi tafovutlar ingliz tilida muloqot qilishda kommunikativ to'siq sifatida namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Turaeva (2024), Slabakova (2016), Rasulova (2022) hamda zamonaviy o'zbek olimlari (Jabborov, Tursunova, Rahmonaliyeva) tadqiqotlari asosida madaniy interferensiyani kamaytirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: pragmalingvistika, madaniy interferensiya, lingvokulturologiya, murojaat shakllari, xushmuomalilik formulalari, nutqiy etiket.

Аннотация

В данной статье рассматриваются проблемы культурной интерференции при изучении английского языка. На материале узбекского и русского языков анализируются различия в формах обращения, формулах вежливости и бытовых традициях, которые могут становиться коммуникативным барьером при межкультурном общении. Научные выводы Тураевой (2024), Слабаковой (2016), Расуловой (2022), а также современных узбекских исследователей (Жабборов, Турсунова, Рахмоналиева) служат основой для рекомендаций по преодолению культурной интерференции.

Ключевые слова: прагмалингвистика, культурная интерференция, лингвокультурология, формы обращения, формулы вежливости, речевой этикет.

Abstract

This article explores the issue of cultural interference in the process of learning English. Differences in address forms, politeness strategies, and everyday cultural practices in Uzbek and Russian are analyzed as potential communicative barriers in intercultural communication. The study draws on the works of Turaeva (2024), Slabakova (2016), Rasulova (2022), as well as recent Uzbek scholars (Jabborov, Tursunova, Rahmonaliyeva), and outlines practical strategies for reducing cultural interference in foreign language learning.

Keywords: pragmalinguistics, cultural interference, linguoculturology, address forms, politeness strategies, speech etiquette.

Kirish

Bugungi globalashuv davrida til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq holda inson hayotining barcha jabhalariga kirib bormoqda. Xalqaro hamkorlik, ta'lim, fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi chet tillarini chuqur o'rganishni talab etmoqda. Biroq tilni o'rganish faqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish bilangina chegaralanmaydi; u, avvalo, til egasining madaniyati, milliy tafakkuri va ijtimoiy odatlarini o'z ichiga oladi. Shu sababli chet tilini o'rganuvchilar ko'pincha madaniy va pragmatik interferensiya muammolariga duch keladilar. Madaniy interferensiya til o'rganuvchining ona tilidagi qadriyatlar va nutqiy

stereotiplarni chet tilida ham qo'llashidan kelib chiqadi. Natijada, muloqotda noaniqlik, tushunmovchilik, ba'zan esa kommunikativ muvaffaqiyatsizlik yuzaga keladi. Masalan, o'zbek tilida "Siz" orqali hurmat ifodalanadi, ingliz tilida esa yagona "you" ishlatiladi. Xuddi shuningdek, o'zbek va ingliz madaniyatlaridagi xushmuomalalik strategiyalari yoki mehmondorchilik odatlaridagi tafovutlar ingliz tilida tabiiy muloqot qilishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

So'nggi yillarda ushbu masala mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilmoqda. Turaeva (2024) interferensiyaning madaniy ko'rinishlarini alohida ta'kidlagan bo'lsa, Slabakova (2016) uchinchi tilni o'zlashtirishda crosslinguistic influence selektiv tarzda yuz berishini ko'rsatadi. Rasulova (2022) o'zbek va rus madaniyatlaridagi nutqiy tafovutlarni amaliy misollar orqali ochib bergan. Zamonaviy o'zbek tadqiqotchilari – Jabborov (2025), Tursunova (2025), Rahmonaliyeva (2025) – esa ingliz tilini o'zbek kontekstida o'rganishda pragmatik va sociolinguistik qiyinchiliklarni ilmiy asosda o'rganganlar.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, ingliz tilini o'zlashtirishda madaniy interferensiyaning inkor etib bo'lmaydi. Uni chuqur tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda nafaqat til o'rganuvchilar, balki chet tillarini o'qituvchi mutaxassislar uchun ham zarurdir. Ushbu maqola ingliz tilini o'rganish jarayonida yuzaga keladigan madaniy va pragmatik interferensiyaning asosiy ko'rinishlarini yoritishga va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishga qaratilgan.

1. Pragmalingvistika va madaniy interferensiya tushunchasi

Pragmalingvistika tilshunoslikning nutqiy muloqotdagi maqsad, niyat va kontekstni o'rganadigan yo'nalishi hisoblanadi. U nutqiy birliklarning kommunikativ vazifasi va ijtimoiy kontekstdagi qo'llanilishini tahlil qiladi. Chet tilini o'rganishda faqat grammatik qoidalarni bilish kifoya qilmaydi; o'quvchi ushbu tilning nutqiy etiketini, madaniy konnotatsiyalarini va pragmatik strategiyalarini ham egallashi zarur. Madaniy interferensiya esa o'quvchining ona tilidagi nutqiy va madaniy odatlarni chet tiliga ko'chirishidan kelib chiqadi. Natijada, kommunikativ vaziyat noto'g'ri tushuniladi yoki suhbatdosh nutqni odobdan tashqari, g'alati qabul qilishi mumkin. Slabakova (2016) buni 'crosslinguistic influence' deb ataydi va u til o'rganishda tabiiy, lekin selektiv tarzda yuz berishini ta'kidlaydi.

2. Murojaat shakllarida interferensiya

O'zbek tilida "sen" va "siz" shakllari ijtimoiy masofa va hurmat darajasini ifodalaydi. Bu esa nutqda doimiy ravishda sotsiopragmatik farqlarni keltirib chiqaradi. Ingliz tilida esa yagona "you" ishlatiladi, lekin murojaat ohangi va qo'shimcha iboralar (Mr., Ms., Sir, Madam) orqali rasmiylik darajasi belgilanadi. O'zbek talabalar ingliz tilida gapirganda ko'pincha o'z ona tilidagi "sizlab" murojaatni ifodalashga intilib, nutqni ortiqcha rasmiylashtiradilar. Ba'zan esa aksincha, "senlab" murojaatni inglizchada samimiy tarzda qo'llashga harakat qilib, suhbatdoshga qo'pol tuyulishi mumkin. Turaeva (2024) bunday vaziyatlarni tipik madaniy transfer sifatida izohlaydi.

3. Xushmuomalalik formulalarida interferensiya

O'zbek nutq madaniyatida xushmuomalilik juda keng va rang-barang ifodalanadi. "Iltimos", "xafa bo'lmang", "rozi bo'lsangiz", "yaxshi qoling", "ovqatdan oling" kabi iboralar suhbatdoshga doimiy ravishda hurmat va e'tibor ifodalaydi. Ingliz tilida esa qisqa va aniq formulalar – "please", "sorry", "thanks", "excuse me" kabi iboralar yetarli bo'ladi. Rasulova (2022) qayd etganidek, o'zbek talabalar ingliz tilida muloqot qilganda ko'pincha ona tilidagi

uzun xushmuomalilik ifodalarini qo'llashga moyil bo'ladilar. Bu esa ingliz tilida ortiqcha cho'zilish, samimiy emasdek ko'rinish yoki ba'zan "keraksiz tafsilot" sifatida qabul qilinishi mumkin. Rahmonaliyeva (2025) bunday interferensiyanı kamaytirish uchun o'quvchilarga ingliz tilidagi pragmatik rutinalarnı maxsus mashqlar orqali o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi.

4. Turmush odatlaridagi madaniy interferensiya

Til faqat aloqa vositasi emas, balki madaniyatning ifodasidir. Shuning uchun turmush odatlaridagi tafovutlar ham chet tilida muloqotga ta'sir qiladi. O'zbek mehmondorchiligida dastlab choy va shirinlik tortilishi odatiy hol bo'lsa, ingliz madaniyatida shirinlik odatda ovqatdan keyin beriladi. Inglizlarning qisqa "help yourself" iborasi o'zbekona "ovqatdan oling, marhamat" takrorlari o'rnini bosa olmaydi. Bunday tafovutlar o'quvchilarning ingliz tilidagi nutqida noto'g'ri qo'llanadi yoki tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi. Jabborov (2025) bu jarayonni 'sotsiomadaniy interferensiya' deb ataydi va uni o'quvchilarnı ingliz tilidagi real kommunikativ vaziyatlarga jalb qilish orqali kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydi.

5. Amaliy yechimlar

Madaniy va pragmatik interferensiyanı kamaytirish uchun bir necha usullar tavsiya etiladi:

- Ingliz tilidagi nutqiy etiketini alohida mavzu sifatida o'rgatish.
- Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan rol o'yinlari va dialoglardan foydalanish.
- O'zbek va ingliz madaniyatlarini qiyosiy tahlil qilish mashqlarini joriy etish.
- Ingliz madaniyatiga oid autentik materiallardan (filmlar, intervyular, maqolalar) foydalanish.

Talabalarga ingliz madaniyati haqidagi madaniy axborot materiallari (filmlar, intervyular, maqolalar)ni o'qitish. Rahmonaliyeva (2025) va Tursunova (2025)ning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, pragmatik kompetensiyanı maxsus mashg'ulotlar orqali rivojlantirish ingliz tilini samarali o'zlashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Mazkur maqolada ingliz tilini o'rganishda yuzaga keladigan madaniy va pragmatik interferensiya masalasi keng yoritildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, til o'rganuvchilarning asosiy xatolari grammatik yoki leksik bilim yetishmasligidan emas, balki ularning ona tilidagi nutqiy odatlar, milliy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarnı ingliz tiliga ko'chirishidan kelib chiqadi. O'zbek tilida muhim o'rin tutadigan murojaat shakllari (sen/siz), uzun va samimiy xushmuomalilik formulalari, salomlashish va xayrlashish odatlari, mehmondorchilikka oid dasturxon madaniyati, shuningdek gapirish ohangi va tana (imo-ishora) tili ingliz tilidagi muloqotda ko'pincha tabiiy aks etmaydi. Ingliz tilida qisqalik, aniqlik va bevositalik qadrlansa, o'zbekona nutqiy stereotiplar ba'zan ortiqcha cho'zilish, bilvositalik yoki noqulay pauzalar keltirib chiqaradi. Natijada suhbatdoshlar o'rtasida tushunmovchilik, kommunikativ muvaffaqiyatsizliklar yuzaga kelishi mumkin. Demak, ingliz tilini samarali o'rganish uchun faqat grammatik qoidalarnı bilishning o'zi kifoya emas. Tilni egallash jarayonida pragmalıngvistik va madaniy kompetensiyanı shakllantirish ham zarurdir. Tilni madaniyatdan ajratmagan holda, ularni uyg'un tarzda o'rgatish — o'quvchining ingliz tilida tabiiy va muvaffaqiyatli muloqot qilishi uchun asosiy shartdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jabborov, A. (2025). Sociopragmatic challenges of Uzbek EFL learners. Tashkent State Pedagogical University Journal, 12(1), 33–40.
2. Kagan, M. S. (1988). Mir obshcheniya: Problemy mezhsob"ektnykh otnosheniy. Moscow: Politizdat.
3. Mamatqulova, M. (2023). HOW DOES A PERSON BECOME MULTILINGUAL?. Qo'qon Universiteti Xabarnomasi, 9(9), 209–212. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.874>
4. Rasulova, I. (2022). Lingvomadaniy interferensiya va uning til o'rganishdagi salbiy ta'siri: Rus va o'zbek tillari va madaniyati misolida. Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti ilmiy jurnali, 3(2), 45–52.
5. Rahmonaliyeva, S. (2025). Task-based approach to teaching politeness strategies in English. Journal of Modern Foreign Languages, 4(1), 77–85.
6. Sabitova, Z. K. (2013). Lingvokulturologiya: Uchebnik. Moscow: Flinta–Nauka.
7. Slabakova, R. (2016). Second language acquisition. Oxford: Oxford University Press.
8. Turayeva, M. (2024). Pragmatic failures in intercultural communication: Uzbek learners of English. Tashkent: UzSWLU Press.
9. Tursunova, N. (2025). Intercultural pragmatics in English language teaching in Uzbekistan. Uzbek Journal of Applied Linguistics, 7(3), 58–67.
10. RAJAPOVA, M. (2023). Allegorik vositalarning lingvokognitiv va lingvopragmatik xususiyatlari. Я ПРЕПОДАВАНИЕ, 197.
11. Rajapova, M. (2021). Principles of cognitive metaphor and allegory in discourse. Scienceweb academic papers collection.
12. Rajapova, M. (2023). BADIY USLUB VA ALLEGORIYANING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI TADQIQI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(9), 121-124.
13. Rajapova, M. (2022). Linguocultural Features of Allegorical Means Used in the Literary Text. Scienceweb academic papers collection.
14. Haydarova, G. (2023). O'zbek tili taraqqiyotida baynalmilal so'zlarning ahamiyati. UzMU xabarlari, 1(4), 306-308.
15. Ахмадалиевна, Х. Г. (2022). Собир Абдулла, Чархий Ва Ҳабибий Ғазалиётининг Вазн Хусусиятларига Доир. Conferencea, 47-49.